

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyati bo'yicha tahliliy

MA'LUMOTNOMA

(2022-yil yanvar-dekabr)

I. Texnik jihatdan tartibga solish agentligining asosiy faoliyatlari va vazifalaridan kelib chiqib olib borilayotgan ishlar to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PF-6240-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5133-son Qarori doirasida:

sertifikatlashtirish agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tashkil etildi;

- Agentlikning asosiy vazifalaridan biri "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi, "Standartlashtirish to'g'risida"gi, "Metrologiya to'g'risida"gi, "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi, "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlar hamda normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy jihatdan amalga oshirishdan iborat;

O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni 2022 yil 3 noyabrda O'RO-800-son bilan qabul qilindi.

Oliy Majlis Senatining 2022 yil 27 dekabrda o'ttiz oltinchi Yalpi majlisida "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida", "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihalari ma'qullandi.

1. Standartlashtirish sohasida xalqaro talablar bilan uyg'unlashgan 7 763 ta standart qabul qilinib, 7 968 tasi qayta ko'rib chiqildi. Natijada standartlar soni 19 543 taga yetkazildi (80,4 %);

Misol uchun: qurilish sohasida (2 264 ta), metallurgiya (833 ta), to'qimachilik va charm (638 ta), axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya (1 124 ta), neft va gaz (1 354 ta), elektrotexnika (1 467 ta), kimyo texnologiyalari (1 374 ta), oziq-ovqat sanoati (2 154 ta) va boshqa sohalarda (5 224 ta) standart xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirilgan.

2. Texnik jihatdan tartibga solish sohasida texnik reglamentlar soni 57 tani tashkil etadi (*41 ta umumiy, 16 ta maxsus*). Joriy yil yakuniga qadar YEOfda qabul qilingan hamda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lmagan 23 ta texnik reglamentni qabul qilishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihalarini hamda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan 11 ta texnik reglamentni YEOfda o'xshash texnik reglamentlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tarmoq jadvali ishlab chiqildi.

YEOfda qabul qilingan hamda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lmagan 22 ta texnik reglamentlaridan 4 tasi Vazirlar Mahkamasiga qarori bilan tasdiqlandi, 9 ta loyiha Vazirlar Mahkamasiga kiritildi shundan (*6 ta loyiha Vazirlar Mahkamasida, 3 tasi e'tirozlar bilan qaytarildi*). 12 ta loyiha Adliya vazirligiga Huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritildi qolgan 1 tasi vazirlik va idoralar bilan kelishish jarayonida.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan 11 ta texnik reglament loyihalari Adliya vazirligiga kiritilib, shundan 9 tasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi (*3 ta loyiha Vazirlar Mahkamasida, 6 tasi e'tirozlar bilan qaytarildi*). Qolgan 2 ta loyiha Adliya vazirligi tomonidan Huquqiy ekspertiza natijalari bo'yicha ijobiy xulosasi olingandan so'ng Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

Standartlar va o'lchovlar yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha davlat nazorati sohasida 14 932 ta korxonada profilaktika tadbirlari o'tkazildi.

3 385 ta korxonada 5 075 ta me'yoriy hujjat bilan ta'minlandi. 2 741 ta korxonaning 21 054 ta o'lchash vositalari davlat qiyoslash ko'rigidan o'tkazilishida hamda 1 412 ta korxonaga sertifikatlashtirish yuzasidan amaliy yordam ko'rsatildi.

Misol uchun: "GEOBASALT PRODUCTS" MCHJQgaBojxona Ittifoqi texnik reglament talablari asosida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirishida amaliy yordam ko'rsatildi.

"SINO SILK" MCHJ korxonasiga Xitoy davlatining ipak momig'i mahsulotlariga qo'yilgan talabi yetkazildi hamda xalqaro ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimini joriy qilishda amaliy yordam ko'rsatildi. Natijada 199,5ming dollari miqdoridagi ipak momig'i mahsulotlari Xitoy davlatiga eksport qilinishiga erishildi.

4. O'lchashlar yagonaligini ta'minlash sohasida 559 764 dona o'lchash vositalari (*shulardan 4 743 dona o'lchash vositasi yaroqsiz deb topilgan*) metrologik tekshiruvdan o'tkazildi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning 113 828 ta murojaatlariga asosan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskunalari (*hisoblagichlarni*) qiyoslash ishlari amalga oshirildi.

O'lchash vositalarining metrologik tekshiruv natijalari va tasdiqlangan turini tan olish bo'yicha **56 dona** sertifikatlar rasmiylashtirildi va turini tasdiqlash maqsadida **29 turdagi** o'lchash vositalari davlat sinovlaridan o'tkazildi.

5. Muvofiqlikni baholash sohasida milliy sertifikatlash tizimida 133 180 ta muvofiqlik sertifikatlar rasmiylashtirildi, shundan, **922 ta** muvofiqlik sertifikatlar bir kalendar yiliga shartnoma asosida, **6 796 ta** muvofiqlik sertifikatlar seriyali ishlab chiqarishga rasmiylashtirildi.

6. Menejment tizimlarini joriy etish sohasida 645 ta korxonada **1065 ta** sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlar rasmiylashtirilgan, shundan:

Sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlashtirish **16 ta** akkreditlangan organlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi **72 ta** korxonaga Oeko Tex, **6 ta** korxonaga Sedex, **2 ta** korxonaga BCSI xalqaro standart talablari asosida mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

II. Respublika hududlarida eksportni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilgan ishlar to'g'risida.

1. Eksportyor korxonalarga 1710 ta, shundan standartlashtirish **669 ta,** metrologiya **92 ta,** sertifikatlashtirish **311 ta,** qadoqlash va yorliqlash **110 ta,** sifat menejment tizimlari masalalari **383 ta** va boshqa masalalarda **145 ta** konsultativ xizmatlar ko'rsatildi.

134 marotaba seminar-trening, **42 ta** televideniya chiqish, gazeta va jurnallarda **48 ta** maqolalar chopetildi.

2. Hududlarda joylashgan 177 ta tumandagi **1193 ta** korxonalarining **85 turdagi** mahsulotlarini dunyoning **43 ta** mamlakatlariga eksport qilinishida amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Misol uchun: MDH, Xitoy, Hindiston, BAA, AQSH, Turkiya, Iroq, Kanada, Afg'oniston, Pokiston, Koreya, Germaniya, Polsha, Latviya, Italiya, Portugaliya, Tayvan va boshqa.

III. Xorijiy mamlakatlar bilan olib borilayotgan ishlar to'g'risida.

O'zbekiston akkreditatsiya markazi Xalqaro akkreditatsiya forumi – IAF, Xalqaro laboratoriyalar akkreditatsiyasi hamkorligi – ILACTeng huquqli a'zosi sifatida tan olindi. IAF-MLA va ILAC-MRA muvofiqlikni baholash natijalarini o'zaro tan olish bitimlariga qo'shildi.

Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE) bilan texnik hamkorlik "Ikkilamchi etalonlar dozimetriya laboratoriyasini yaratish" loyihasi doirasida xalqaro ekspertlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Germaniya iqtisodiyoti Sharqiy qo'mitasi vakillari bilan onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi. Hamkorlikni rivojlantirishning keyingi bosqichlari,

Toshkentda bo'lib o'tadigan ikki tomonlama uchrashuv va onlayn konferensiya orqali muhokama qilindi.

Standartlashtirish va metrologiya sohasida ilg'or Yevropa tajribasini o'rganish maqsadida "O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining standartlashtirish va metrologiya sohasida xalqaro amaliyotga muvofiq salohiyatini kuchaytirish" grant loyihasi doirasida joriy yilning 17-21 oktyabr kunlari Latviya davlatining Riga shahriga xizmat safari tashkil qilindi.

Xizmat safari davomida Latviya standartlar instituti, Latviya Milliy metrologiya markazi, Latviya Metrologiya byurosi, Riga Texnika universiteti, Latviya iste'molchilar huquqini himoya qilish markazi, "Tilde" tarjimonlik markazi, O'zbekistonning Latviyadagi elchixonasi vakillari bilan soha yo'nalishlarda ikki tomonlama ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni yana-da faollashtirishga qaratilgan uchrashuvlar o'tkazildi.

Janubiy Koreyaning "Korea Conformity Laboratories" (KCL) kompaniyasi bilan hamkorlikda maishiy konditsionerlarning energiya samaradorligini baholash bo'yicha yangi laboratoriya tashkil etish hamda uni xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish loyihasi ishlab chiqildi.

Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasi (IEC) bilan hamkorlik natijasida 2022 yilda qabul qilingan Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasi xalqaro standartlari soni 717 taga yetkazildi;

Yevropa Komissiyasining Texnik yordam va axborot almashuvi vositasi (TAIEX), Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC), Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO), Hilfswerk International (Avstriya), GIZ (Germaniya), Germaniya Federal fizika-texnik instituti (PTB), SASO (Saudiya Arabistoni), HDC (Malayziya), Islom mamlakatlarining standartlar instituti (SMIIC), CATARC (Xitoy), Rosstandart (Rossiya), Gosstandart (Belarus), URS BANGLADESH (Bangladesh), The Technical and Test Institute for Construction Prague SOE (Chexiya), Latviya standartlar instituti (Latviya), Latviya Metrologiya instituti (LNMI) grant va texnik ko'maklarini faol jalb etish orqali davlat va xususiy sektorda faoliyat ko'rsatayotgan 700 ta mutaxassis bilim va malakasi oshirildi.

Tadbirlarga xorijiy ekspertlar Manfred Kayndler (Germaniya), Morin Logge (Belgiya), Speranta Stomff va Andriya Yorga (Ruminiya), Daniela Milanova Gorcheva (Bolgariya) jalb etilgan.

2022-yilning 1 - 4 noyabr kunlari (AQSH, San-Fransisko) Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasi (IEC)ning 86 - Bosh Assambleya yig'ilishida qatnashildi. Ushbu Assambleya yig'ilish doirasida quyidagi tadbirlar o'tkazildi:

IECning direktori Ketrin Fraga (Angliya), markaziy apparati ekspertlari Aristeya Kiriakati (Gretsiya), Volfram Zeyts (Shvetsariya) bilan uchrashildi.

Uchrashuv natijasiga ko'ra, O'zbekistonni IEC tashkilotida "Associate membership" maqomida faoliyat yuritishi, xalqaro standartlarni qabul qilish, tarqatish, mutaxassislarni malakasini oshirish maqsadida 2023-yilda Shveysariyada xalqaro ekspertlar jalb qilgan xolda 6 ta o'quvseminar o'tkazish uchun texnik ko'mak ko'rsatishga kelishildi.

"GSP+preferensiyalartizimi" orqali mahsulot raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini oshirishdagi masalalar bo'yicha Yevropa standartlashtirish tashkilotlari (CEN-CENELEC) Bosh kotibi YelenaSantiago bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda, Hamkorlikning mantiqiy davomi sifatida Yevropa standartlashtirish tashkilotlari (CEN-CENELEC) bilan navbatdagi hamkorlik bitimi imzolandi va 100 taEN standartlari olindi hamda 2023-yilda "Companion membership" a'zolik maqomini olish uchun ariza berish masalasini ko'rib chiqishga kelishildi.

Koreyaning "Korea Conformity Laboratories" (KCL) kompaniyasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda maishiy konditsionerlarning energiya samaradorligini baholash bo'yicha yangi laboratoriya tashkil etish uchun hamkorlik memorandumini imzolandi. Loyiha Koreya Respublikasi tomonidan ajratiladigan grant mablag'i hisobiga amalga oshiriladi, loyiha summasi 2,3 mln dollni tashkil etadi.

Yaponiya bilan soha yo'nalishida olib borilgan hamkorlik natijasida mebel va mebel mahsulotlari butlovchi qismlarini sinovdan o'tkazish yo'nalishida tajriba oshirish uchun grant olishga erishildi. 2023 yil yanvar oyida Agentlikning 20 nafar mutaxassis Yaponiyaning "Noritsu Co Ltd" va "Meinan Co Ltd" korxonalarida malaka oshiradi.

Germaniya iqtisodiyotining Sharqiy qo'mitasi (Ost-Ausschuss der Deutschen Wirtschaft) bilan hamkorlikda energetika, elektrotexnika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish, raqamlashtirish, kiberxavfsizlik, mashinasozlik va yashil iqtisodiyot yo'nalishlarida ishchi guruhlar tashkil etilib, mazkur yo'nalishlarda standartlarni va texnik reglamentlarni uyg'unlashtirish ishlari boshlandi.